



INSOFLI EGALLOVCHI TUSHUNCHASINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI.

Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna

Fuqarolik ishlari bo'yicha Ishtixon tumanlararo sudi sudyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13375784>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024

Accepted: 15th August 2024

Published: 18th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Bizga ma'lumki, mulk huquqining vujudga kelish asoslari quyidagilardan iborat: mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulknii yaratish, ko'paytirish, bitimlar asosida qo'lga kiritish; davlat mol-mulknii xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa asoslarda vujudga kelib, qonunchilikda belgilangan tartibda mulkdorlarning huquqlari himoya qilinadi va kafolatlanadi. Bunda eng asosiysi qonunda belgilangan tartibda va asoslarda vujudga kelgan mulk huquqi dahlsiz hisoblanadi va qonun bilan himoya qilinadi.

Xususiy mulkning daxlsizligi: birinchidan, xususiy mulk huquqining sub'ektlari davlat mulkiga ega bo'lgan kabi barcha huquqiy kafolatlar va imkoniyatlardan keng foydalanishida; ikkinchidan, xususiy mulk manfaatlariga qaratilgan noqonuniy har qanday aralashish sud hokimiyati tomonidan himoya qilinishi; uchinchidan, mulkdorga qarshi turgan barcha sub'ektlar mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik qonunchiligida shunday munosabatlar borki, mulk huquqining vujudga kelishi bilan bog'liq qonun talablariga amal qilinmaydi yoki belgilangan tartibga rioya etilmaydi. Bu esa, taraflarning huquq va erkinliklarining buzilishiga olib keladi. Bunga yorqin misol insofli egallash institutini keltirishimiz mumkin.

Insofli egallovchining huquqiy maqomi ko'p asrlar davomida fuqarolik huquqi nazariyasidagi eng keskin muammolardan biri bo'lib kelgan. Insofli egallovchini himoya qilish to'g'risidagi qoidalarni ishlab chiqish "insoniyat" Rim huquqining individualligidan "ijtimoiy g'oyalar va zamonaviy hayot talablari" ta'siri ostida mulknii qaytarishdan uni cheklashgacha bo'lgan evolyusiya yo'lini qamrab olgan.

Rim huquqi insofli egallovchi mulknii qaytarib berish da'vosi orqali ushbu mulknii o'zganing ixtiyoridan tortib olishga ruxsat bergan. O'zini oqlash imkoniyati va uni izchil amalga oshirish savdo aylanmasida umumiy noaniqliknii keltirib chiqardi, bunda xaridor hech qachon uning egasiga aylanganiga ishonch hosil qila olmaydi. Bu narsaga egaligini isbotlaydigan va uni o'zi uchun olib qo'yadigan kimdir paydo bo'lishi ehtimoli har doim mavjud edi. Shu munosabat bilan insofli egallovchi instituti va uning huquqlarini himoya qililish tendensiyalari ilk davrlardan shakllana boshlagan.

Masalan, nemis odat huquqida ko'char mulk muomalasida "Hand muss Hand wahren" tamoyili qo'llanilgan bo'lib, unga ko'ra faqat egasining qo'lidan uning irodasiga qarshi chiqqan (o'g'irlangan, yo'qolgan) narsalar olib qo'yilishi va mulk sobiq egasiga qaytarilishi kerak edi. U

o'z ixtiyori bilan kimgadir ishonib topshirgan narsalar, agar bu ikkinchisi tomonidan begonalashtirilgan taqdirda, egasini butunlay tark etadi va bunday narsalarni har bir insofli egallovchi qaytarib bo'lmaydigan egasiga aylanadi. Sobiq egasi o'zi ishonib topshirgan kishidan zararni qoplashni talab qilish huquqini oldi: "wo man seinen Glauben gelassen hat, da muss man ihn suchen".

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida insofli egallovchi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha umumiy muammolarni o'rgangan quyidagi olimlarning fikraliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak; Podshivalov T.P. insofli egallovchining huquqiy maqomini egallovchiga hisoblab, tegishli vindikatsiyani cheklashning predmeti muammosini hal qilish doirasida vindikatsiyani cheklash modellari bilan bog'laydi. Insofli egallovchi huquqiy maqomi ko'p asrlar davomida fuqarolik huquqi nazariyasidagi eng keskin muammolardan biri bo'lib kelgan. Insofli egallovchini himoya qilish to'g'risidagi qoidalarni ishlab chiqish insoniyat "Rim huquqining individualligi" dan ijtimoiy g'oyalar va zamonaviy hayot talablari" ta'siri ostida egalik qilishni cheklashgacha bo'lgan evolyusiya yo'lidir deb ta'rif beradi.

Ushbu masalani tahlil qilib, E.A. Suxanov, cheklangan egalik qilish instituti mavjud bo'lmaganda, "har qanday xaridor olgan narsasidan mahrum bo'lish tahdidi ostida qoladi va shuning uchun qo'shimcha kafolatlarga muhtoj bo'ladi" degan xulosaga keladi.

R.S. Bevzenkoning ta'kidlashicha, "cheksiz egalik qilish huquqining mavjudligi aylanmani sezilarli darajada murakkablashtiradi va fuqarolik-huquqiy munosabatlarning insofli egallovchi ishtirokchilarining manfaatlarini e'tiborsiz qoldiradi".

Professor I.B.Zokirovning fikriga ko'ra, "Insofli egallovchi deganda, mulkning o'ziga g'ayriqonuniy o'tganligini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan egallovchi tushuniladi".

Rus olimi M.A.Egorovanning fikriga ko'ra, "Sud insofsizlik bilan harakat qilgan shaxsning huquqlarini himoya qilishni rad etib, uni o'z huquqlarini ruyobga chiqarish huquqidan amalda mahrum etmaydi, balki faqat shunday imkoniyatni cheklagan holda, insofsiz shaxsni qarshi sheriklari va uchinchi shaxslarga nisbatan o'zini shunday tutganligi uchun jazolaydi".

Yuqoridagi olimlar fikridan ko'rinib turibiki Insofli egallovchi tushunchasi va uning kelib chiqish vaqti insoniyat olamining rivojlanish davriga to'g'ri kelib bugungi kungacha o'z maqsadini va faolligini yo'qotmagan holda baxs va munozaralarga, davriy yangicha fikrlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аверьянова М.Б. Защита добросовестного приобретателя в российском гражданском праве: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2001.
2. Покровский И. А. Основные проблемы гражданского права, глава 11 Петроград, «Право», 1917 год
3. Покровский И. А. Основные проблемы гражданского права, глава 11 Петроград, «Право», 1917 год. <https://www.susu.ru/ru/employee/podshivalov-tihon-petrovich>.
4. Аверьянова М.В. Защита добросовестного приобретателя в российском гражданском праве: автореферат дисс. ... канд. юрид. наук. -М., 2001, С. 6-7.
5. Бевзенко Р.С. Защита добросовестно приобретенного владения в гражданском праве: автореферат дисс. ... канд. юрид. наук. - Саратов, 2002, С. 20.
6. И.Б.Зокиров. Фуқаролик ҳуқуқи. 1 қисм. Тошкент. ТДЮИ нашриёти. 2009. 448-б. www.ziyouz.com. кутубхонаси.
7. В.А.Гончарова. ВГУ.Серия: право. Недобросовестность как основание недействительности сделки. УДК 347.